



O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OMONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Shahriyor Xolmatov Zohidjon o'g'li¹

o'qituvchisi

Mushtariybegim Yuldosheva Madaminjon qizi²

talabasi

¹⁻²FarDU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6805337>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2022

Accepted: 01st July 2022

Online: 07th July 2022

KEY WORDS

semasiologiya, uslubiyat, polisemiya, ko'p ma'noli so'zlar, omonimlik, omonimlar, omograflar, omofonlar, so'z o'yini, tajnis, iyhom, payrov, paronomasiya (pun)

ABSTRACT

Maqolada shakldosh so'zlarning uslubiy jihatlari – she'riyat va adabiyotda so'z o'yinlari hosil qilishdagi ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.

Semasiologiya, ayniqsa, polisemantik va omonimik so'zlar o'rtasidagi muammolar, o'rganish va tahlil qilish jihatidan tilshunoslar orasida doimiy bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Shunga qaramasdan, aniq tafovutlarga ko'ra farqlanadigan, lekin tom ma'noda bir-biriga bog'liq ekanligi hamda ko'pincha nutqimizda hech qanday tushunmovchiliklarga sabab bo'lmagani uchun bu ikki lingvistik hodisaning uslubiy natijasi aynan bir xil bo'ladi. Albatta, muloqot paytida so'z o'zining ayni qaysi ma'nosida ishlatilayotganini bilishimizda bizga kontekst yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham so'zlar ko'pincha birdan ortiq ma'noga ega bo'sa-da, so'zning kontekstga mos tushadigan ma'nosi, umuman olganda, qiyinchiliksiz tushuniladi. Shuni ham alohida takidlash joizki, so'zning

polisemantik ekanligi uning anglatib kela oladigan ma'nolari ehtimolini oshiradi, bu esa semantik noaniqlikka sabab bo'ladi. Semantik noaniqlik ma'lum so'z yoki so'z birikmasi ko'p ma'noliligi tufayli uni birdan ortiq ma'noda tushinish mumkin bo'lgan hollarda sodir bo'ladi. Ushbu noaniqlik leksemalarga qo'shimcha ma'no yuklagan holda, til lug'atini doimiy ravishda omonimlar va polisemiylar bilan boyitib boradi. Semantik noaniqlik natijasi o'laroq omonim leksik birliklar nutqda, kundalik turmush tarzimizda, ommaviy axborot vositalari va, eng muhimi, adabiyot va she'riyatda qochiriq vosita sifatida so'z o'yinlarini yaratishda keng qo'llaniladi. Bunday so'z o'yinlari ma'nolar bog'liqligiga emas (polisemiya), balki, ko'pincha leksemaning talaffuz yoki orfografik birliklari asosiga qurilgani uchun omonimlar bosh manba hisoblanib,



natijaning kutilmagan bo'lishini ta'minlaydi. Quyida tilshunoslik va adabiyotshunoslikda eng keng tarqalgan so'z o'yinlari bo'lgan – o'zbek mumtoz she'riy adabiyotida – tajnis, iyhom hamda uning nasrdagi shakli – payrov; ingliz tili adabiyotida hamma janrda birdek, hatto, kundalik hayotda ham keng qo'llaniladigan – paronomasiya va uning turlarini qiyosiy tahlil qilishga harakat qilamiz.

So'z o'yini, bu pragmatik omonimlikka asoslangan, ma'nolardan o'tkir zehn va donolik bilan foydalanishdir. Gruzin tilshunos olimi Giorgadze so'z o'yinida leksemaning yozilishi, o'qilishi hamda ma'nosidan tashqari, intonatsiya ham muhim o'rin tutishi haqida yozadi. Shuningdek, uni aktivlashtirishda kontekst ham birdek ahamiyatli, zero, so'z bilan mohirona o'yin qilishning asosiy pragmatik vazifasi yumor, satira yoki sarkazmni yuzaga chiqarishdir [6]. Demak, birgina so'z o'yinini paydo bo'lishida tilshunoslikning bir qancha bo'limlari, xususan – leksikologiya, semasiologiya, fonetika va orfografiya qatnashar ekan. Bu esa nafaqat uni yaratishni, balki tushunish jarayonini ham qiyinlashtirib qo'yishi mumkin. Har ikki tilshunosligida ham so'z san'atlarining bir qancha turlari bo'lib, ular orasida, avvalo, faqat sharq she'riyatiga xos, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotida alohida o'ringa ega – tuyuq janrining poydevori – tajnis haqida so'z yuritmoqchimiz.

Tajnis (arabcha — “jinsdosh”, ya'ni “o'xshash bo'lmoq”) deb, yozilishi yoki o'qilishi (yoxud har ikkisi) bir xil, ammo ma'nolari har xil bo'lgan leksemalar – omonimlarning baytda ikki yoki undan ortiqroq takrorlanib kelishiga aytiladi. Baxshi Ergash Jumanbulbul o'g'li og'zidan

yoziq olingan “Ravshan” dostonidan parchani o'qiylik [9]:

“Qo'lingdan kelganicha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Nasihatim yod qilib ol, yolg'izim,

Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.”

Ushbu tuyuqning birinchi misrasidagi “ot” so'zi “yaxshi nom” ma'nosida, ikkinchi misrasidagi “ot” so'zi “uloqtir, tashla, voz kech” ma'nolarida, nihoyat to'rtinchi misradagi “ot” so'zi “hayvon ot” ma'nosida qo'llanilgan.

Ta'kidlash joizki, tajnis faqatgina tuyuqlardagina ishlatilmaydi. Uni mumtoz g'azallarimizda ham yetarlicha uchramiz: Bo'yung sarv-u sanubartek, beling qil,
Vafo qilg'on kishilarga vafo qil.

Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidan olingan ushbu baytda misralar oxiridagi shakldosh so'zlar tajnis bo'ladi: dastlabki “qil” – “nozik, ingichka” ma'nosini bildirsa, keyingisida u “qilmoq” fe'lini anglatadi [8]. Iyhom – (arabcha, “shubhaga solish”, “adashtirish”, “chalg'itish”) mumtoz she'riyatda ma'lum bir so'zni ikki yoxud undan ortiq ma'nolarda (biri ochiq, ikkinchisi sirliroq) ifodalash san'atidir [1,12]. Demak, iyhomning mohiyati shundaki, she'riy misralarda qo'llaniladigan omonim, ba'zan polisemantik, so'zning ma'nolaridan biri aniq ko'rinib turadi, ammo ikkinchi yashirin ma'no osonlikcha payqalmasligi mumkin. Shoir aslida ikkinchi ma'noni ko'zda tutsa ham, o'quvchi dastlab yaqin, birinchi ma'noga e'tiborini qaratadi. Iyhom juda nozik badiiy san'at turi bo'lgani uchun Alisher Navoiy uni “xossa ma'no” – eng nozik ma'noni ifodalaydigan san'at ekanini ta'kidlaydi [2]:

“Agar xossa ma'no gar iyhom erur,
Aning kunda yuz bayti havlom erur...”



Ushbu soʻz sanʼatini yuqori darajaga olib chiqqan oʻzbek shoiri Zahiriddin Muhammad Bobur hisoblanadi. U oʻzining gʻazal va ruboiylarida iyhomdan doimo ustalik bilan foydalangan. Quyida buning yorqin misolini koʻrishimiz mumkin:

“Davlat bila shod-u shodmon boʻlgʻaysen,
Shavkat birla mashhuri jahon boʻlgʻaysen.

Koʻnglungdagidek dahr aro kom turib,
Bu dahr boricha Komron boʻlgʻaysen.”

Ruboiyda iyhom sanʼati “komron” soʻzida voqe boʻlyapti: bir qarashda soʻzni birinchi – “baxtli, saodatli” maʼnosida tushunamiz va bu bizga ortiqcha qiyinchilik tugʻdirmaydi. Misradagi yashiringan ikkinchi maʼnoni esa eʼtiborli, Zahiriddin Bobur hayoti haqida yetarli maʼlumotga ega kitobxongina ilgʻay oladi – “Komron” Bobur Mirzoning ikkinchi oʻgʻlining ismi, yaʼni, shoir ruboiyda oʻgʻliga murojaat qilmoqda. Lekin buni ochiq-oydin emas, anglaydigan darajada sirli qilib tasvirlaydi. Iyhom sanʼati shoirdan qanchalik sanʼatkorlikni talab qilsa, oʻquvchidan ham shunchalik zukkolik va topqirlikni talab etadi.

Agar iyhom mumtoz adabiyot uchun xos soʻz sanʼati ekanligini xulosa qilsak, yanglishamiz. Zamonaviy sheʼriyatda iyhom bilan soʻz oʻyini qilishning yangi bosqichi Erkin Vohidov ijodi davrida Pydo boʻldi. Shoirning “Vatan istagi” nomli sheʼridan keltirilgan quyidagi parchaga eʼtibor qarataylik [4,332]:

“Qutlugʻ istiqloq kunida
Ey, Vatan, bagʻringda shod
Erkin oʻgʻloning boʻlib
Yurmoqni istaydir koʻngil.”

Shoir nafaqat ushbu sheʼrida, balki boshqa koʻplab sheʼrlarida oʻz ismidan mohirona foydalanib, iyhom sanʼatini vujudga keltiradi. Bir tomondan, bu misralarni “Erkin” soʻzi ism maʼnosida kelib, sheʼrni

“imzolamoqda”, yaʼni, “Ey, Vatan, istiqloq kunida bagʻringda Erkin (Vohidov) boʻlib yurmoqni istaydi koʻngil” deb tahlil qiladigan boʻlsak, ikkinchi tomondan, “...erkin – ozod, mustaqil yurmoqni istaydi koʻngil” deb tushinishimiz mumkin.

Iyhom bilan soʻz oʻyini qilish sharq adabiyotida uzoq XIV-XV asrlarga – ayniqsa, Mavlono Lutfiy, Hazrat Alisher Navoiylar ijodi davrida nazm oʻzining choʻqqisiga chiqqan davrlarga borib taqaladi. Keyingi asrlardagi yozuvchi-shoirlarning deyarli barchasi ushbu soʻz oʻyinidan mohirona foydalangan boʻlsalarda, to hozir, eng yangi davr adabiyotigacha iyhom, mumtoz adabiyot nazmi uchun xos sanʼatligicha saqlandi. Shuning uchun ham oʻzbek tilida nasrda qoʻllaniladigan soʻz oʻyini – pragmatik omonimlikka asoslangan payrov deb nomlanadi.

Payrov – oʻtkir fikrlar oqimi, birdan ortiq maʼno bildiragigan lingvistik birliklar (polisemantik yoki shakldosh leksemalar) yordamida yuzaga chiqadigan va kinoya, yumor-satirani koʻzlagan holda, soʻzdan soʻz hosil qilish, uning jilosidan toʻliq foydalanish sanʼatidir [5,28]. Uning oʻziga xosligi faqat ogʻzaki koʻrinishda, yaʼni, jahondagi boshqa biror bir xalq ogʻzaki ijodida uchramaydigan askiyalarda uchrashi hisoblanadi:

“– Ovqatlariga endi maza kiriyapti, ilgarilari shoʻr va sovuq boʻlard.

– ... oshpazlarning hammasi pazanda boʻlsa kerak, ularning orasida chuchvarani xom sanaydiganlari yoʻqdir-a?”

Yuqoridagi askiya matnida ikki xil payrovni koʻrishimiz mumkin:

1) “shoʻr va sovuq” soʻz birikmalari voqe qilayotgan payrov. Ushu birikmalardan “shoʻr va sovuq” yoki “shoʻrva sovuq” degan ikki xil maʼno anglashilishi mumkin.



2) “chuchvarani xom sanaydigan” iborasi orqali yuzaga chiqqan payrov birligi. Bu jumlaning frazeologik – “xomxayol qilmoq” ma’nosida yoki o’zining oddiy “chuchvara taomi uchun tayyorlangan, hali pishirilmagan mahsulotni sanamoq” ma’nosida tushinish mumkin. [5,192]

Askiyachilikda payrovlarni yarata olish hozirjavob so’z ustasi bo’lish, til va nutq birliklaridan nozik ma’nolarni mohirona qidira olish, fahmlash bilan birga tezda javob qaytarish, zukkolik va muhimi, tinglovchiga estetik zavq berish – kuldira olish qobiliyatlarini talab qiladi. Askiyalarning ayrim namunalarini televizion shoularda, ba’zan kino-filmlarda uchratamiz.

Ingliz tilshunosligida tajnis so’z o’yini uchramasa-da, iyhom va payrov so’z san’atlarining har ikkisi yagona paronomasiya hodisasiga to’g’ri keladi. Negaki, ingliz tilida paronomasiya mumtoz va zamonaviy adabiyotda, nazmda va nasrda birdek ayni maqsadda qo’llanadi. Paronomasiyani oddiy qilib, so’zlarning yumor bilan ikki xil ma’no berishi uchun ishlatish deyish mumkin. Ualter Redfern tili bilan aytganda, bu hodisa omonimlarni sinonimlardek qo’llash hisoblanadi [7]. Melburn universiteti tilshunos olimi, professor J.Hayek fikricha, paronomasiya, ayniqsa, ingliz tili uchun xos va mos bo’lgan so’z o’yini hisoblanadi; buning isboti sifatida u quyidagi sabablarni keltiradi: birinchidan, ingliz grammatikasi jahonning juda ko’plab boshqa tillari grammatikasidan oson. Ikkinchidan, lotin, nemis, fransuz va boshqa tillardan o’zlashgan so’zlar hisobiga ingliz tili omonimlarga nihoyatda boy til hisoblanadi – bu ma’nolar bilan o’yin qilishni yanada osonlashtiradi [3]. Paronomasiya birliklari asosan, yozma nutqda uchraydi, bu uning

o’zbek tilidagi iyhom bilan o’xshashligi, payrov so’z o’yinidan birinchi va asosiy farqlaridan biridir. Ammo ular barchasining umumiy jihati o’quvchi uchun tayyorlab qo’yilgan yashirin ma’nodadir. Paronomasiya ingliz adabiyotining ajralmas tarkibiy qismidir – uni lirik, epik, liro-epik va dramatik turda ham birdek uchratamiz. Shuningdek, ushbu so’z o’yini OAVda – radio, televizorlarda, gazeta, jurnallarda, internet hamda reklamalarda o’quvchi e’tiborini alohida jalb etishda, kundalik va hatto jiddiy siyosiy muammolarni hukumatga, xalqqa yumor-satira yo’li bilan ko’rsatishda faol qurol sifatida qaraladi. Paronomasiyaning o’zbek tilidagi iyhom va payrovdan yana bir asosiy farqi uning o’z ichida 4 katta guruhlarga bo’linishidir[6]:

1. To’liq omonimik (yozilishi ham, o’qilishi ham bir xil). Ushbu tur omograf va omofonlar ishtirokiga asoslanib yuzaga chiqadi. U. Shekspirning “Romeo va Julyetta” tragediyasida Merkutio, Romeoning yaqin do’stlaridan biri, o’ldiriladi. O’lim oldidan Merkutio bunday deydi:

“Ask for me tomorrow and you shall find me a grave man”.

Ushbu misralarda paronomasiya “grave” so’zidir: “to be a grave man” – juda ham jiddiy odam bo’lmoq degani, lekin Merkutio bu so’zni ikkinchi – “to be in the grave” – qabrda bo’lmoq ma’nosida ishlatgan [10]. Ko’rib turganimizdek, “grave” so’zi to’liq omonimdir.

2. Omofonik – bir xil talaffuzga ega so’zlarning paronomasiya hosil qilishi. Shu o’rinda yana Shekspir dramalariga murojaat qilamiz. “Richard III” sahna asarida Richard, Eduard IVning ukasi, bo’lajak qirol, Eduardning bayrog’iga qarata deydi:



“Now is the winter of our discontent
Made glorious summer by this sun of York.”
Ushbu misolda paronomasiya “sun” soʻzida namoyon boʻladi. Darhaqiqat, Eduardning bayrogʻida “sun” – quyoshning surati bor edi. Ammo Richard bu omografni qoʻllash bilan “son” of York yaʼni, York qalʼasining oʻgʻli deb oʻziga ham ishora qiladi [10]. Bu ikki soʻzning yozilishi turlicha boʻlsa-da, bir xil – [sʌn] shaklida talaffuz qilinadi.

3. Omografik – yozilish jihatidan farqlanmaydigan ammo turli xil talaffuzga ega leksemalar bilan paronomasiya shakllanadi:

“You can tune a guitar, but you can’t tuna fish. Unless you play bass.”

Gapda “tuna fish” omofonik tur uchun misol boʻladi, chunki bu “tune a” birikmasining shakldosh jufti. “Bass” soʻzi yuzaga keltirgan paronomasiya esa omografik turga kiradi: leksema [beɪs] tarzida talaffuz qilinsa – musiqa asbobi, [bæs] tarzida oʻqilsa, baliq turini bildiradi.

4. Paronimik (har ikki grafik va fonetik shaklda ozroq farqlanadigan). Bu turdagi paronomasiya bir xillikka emas, oʻxshashlikka asoslanadi:

“He was a great and very popular artist”.

Bir qarashda “artist” soʻzi biror sanʼat turi eksperti degan maʼnoni bersa, boshqa tomondan, “artiste” – aktyorlik kasbi egasi shaklida ham anglashinishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, har ikki tilda ham omonimlar uslubiy jihatdan soʻz oʻyinlari koʻrinishida adabiyotda sirlilik yaratishda, kulgu ulashishda – sof yumor, yashirin maʼnolarga ishora qilishda – yumor-satira, jamiyat hayotida sodir boʻlayotgan muammolarga eʼtibor jab qilishda – sarkazmga yoʻnaltirilib muhim badiiy qurol vositasi sifatida foydalanilar ekan. Tilshunoslikda soʻz oʻyin qilishning bir qancha turlari boʻlib, ular orasida biz omonimlarga asoslanganlari – oʻzbek tilida – tajnis, iyhom va payrov; ingliz tilida esa yagona paronomasiya hodisasini tahlil qilishga harakat qildik. Bunda oʻzbek tilida tajnis va iyhom soʻz sanʼatlari deyarli doimo mumtoz sheʼriyatga xos ekanini (ammo iyhomning baʼzi namunalari zamonaviy sheʼriyatda ham uchrashini koʻrdik), payrov esa faqatgina askiya janrida foydalanilishining guvohi boʻldik. Ingliz tilida esa oʻzbek tilidan farqli ravishda, soʻz oʻyinlarining qoʻllanilish qamrovi maʼlum bir soha, janr bilan chegaralanmaganini bilib oldik. Bundan tashqari paronomasiya moslashuvchanligi sabab nasrda ham, nazmda ham birdek qoʻllanilgan holda bir paytning oʻzida oʻzbek tilidagi iyhom va payrov soʻz oʻyinlariga ekvivalent boʻlar ekan.

References:

1. A. Asallayev, V.Rahmonov, F. Musurmonqulov. 2015. Badiiy sanʼatlar: [Lugʻat-maʼlumotnomaj]. – T.: TAFAKKUR
2. A. Navoiy. 1999. Mezon ul-Avzon. – T.: Fan
3. D. McInnis, J. Hajek. 2018. The power of the pun, viewed 27 December 2018, <<http://www.pursuit.unmelb.edu.au>>
4. E. Vohidov. 1992. Iztirob. – T.: Oʻzbekiston
5. H. Doʻstmatov. 2015. Askiya matni lingvostilistikasi. – T.: Fan
6. M. Giorgadze. 2014. Linguistic Features of Pun, Its Typology and Classification. European Scientific Journal. 2: 271-275.



7. W. Redfern. 1984. Puns. Oxford: Basil Blackwell
8. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/tajnis/>
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/So%CA%BBz_o%CA%BByinii
10. <https://writers.com/pun-examples-in-literature>
11. Ugli, Qurbonov Nasibullo Khabibullo, Durdona Uktamova Bakhtiyor Qizi, and Kholmatov Shakhriyor Zokhidjon Ugli. "TEACHING VOCABULARY TO HIGH-LEVEL STUDENTS." Archive of Conferences. Vol. 3. No. 3. 2020.
12. Холматов Ш., Йўлдошева М. ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СЎЗ УРҒУСИ ДАРАЖАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
13. Kholmatov, S., & Yuldosheva, M. (2022). DIFFERENCES BETWEEN PUN AND DOUBLE ENTENDRE. Involta Scientific Journal, 1(7), 174-177.
14. Kholmatov, S., & Yuldosheva, M. (2022). HOMONYMY IN ITS STYLISTIC USE: ANALYSIS OF PUNS. Involta Scientific Journal, 1(7), 178-181.